




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2023-YIL YANVAR-SENTABR OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 61-222-75-87

www.qrstat.uz


2023-yil yanvar-sentabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 11597,6 mlrd. so'm, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 87,8 % ni tashkil etdi.




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpoq'iston Respublikasi korxonalarini tomonidan 13214,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 100,8 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 69,1 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 2,4 % ga oshganligidir. Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 14,5 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 7,7 % ga pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 171,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ini tashkil etdi.



2023-yil yanvar-sentabr oylarida
O‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da

Ohah tosh



Tabiiy gaz




Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-sentabr	2023-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Ohah tosh, tonna	173382,9	131135,3	-42247,6
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	1026,4	751,5	-274,9

Gaz kondensati



Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-sentabr	2023-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Gaz kondensati, ming t.	60,7	48,6	- 12,1


2023-yil yanvar-sentabr oylarida



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11597,6 mlrd. soʻnni yoki jami sanoat mahsulotlarining 87,8 % ini tashkil etdi.



Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi—0,1 % ni (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida—0,2 %), oʼrta-yuqori texnologiyali—51,8 % (61,6 %) ni, oʼrta-quyi texnologiyali—5,7 % (4,9 %) ni hamda quyi texnologiyalisi—42,4 % (33,3 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi—46,0 % ni (2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi—93,0 %) ni, oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi—16,5 % ni (2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi—111,3 %) ni, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi—18,2 % ni (2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi—116,1 %)ni, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi—3,9 % ni (2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi—108,9 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Aroq




Paxta chigit




Sement




**O'simlik yog'i
(tozalangan)**



Kalava ip



**Yumshoq bug'doy
va spelta uni**



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 4,2 ming tonna tozalangan guruch (2022-yilning mos davriga nisbatan 196,6 % ga), 4,5 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (84,4 %), 285,5 ming tonna portlandsement (29,3 %), 12,9 ming tonna kalava ip (23,5 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, 32,0 ming tonna paxta chigit (5,5 %), 22,6 ming tonna paxta tolasi (0,4 %), 2431,6 ming litr aroq (6,4 %), 47,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (42,0 %) ishlab chiqarilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-sentabr	2023-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirit	2598,3	2431,6	-166,7
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	2451,7	4520,1	2068,4
Paxta tolasi, t.	22720,4	22630,9	-89,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	81408,3	47200,5	-34207,8
Polietilen, ming t.	226,1	203,4	-22,7
Polipropilen, ming t.	63,5	60,5	-3,0

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 61,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 103,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 51,6 % ni, fizik hajm indeksi 92,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5987,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 110,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 11,0 % ga oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1979,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 87,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 17,7 % ga oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2263,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 108,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 8,9 % ga oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 512,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 107,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi 115,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 194,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 132,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 98,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 142,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mebellar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida mebel mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 77,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagи ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi 240,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 189,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-sentabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagи ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 99,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagи ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 119,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 85,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-sentabr oylariida, boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sanoatining chiqaradigan sanoatdagи ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 120,2 %.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagи ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 58,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 53,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1364,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,3 % ini) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 85,5 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 80,6 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlarining hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-sentabr	2023-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	6543,4	6818,7	275,3
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha, xizmatlar, mln. so'm	13521,1	7216,1	-6305,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,2 % ga oshganligi va shahar xo'jaliging qayta foydalanishga yaroqsiz, xavfsiz chinqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 46,6 % ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1964,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 109,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 14,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 81,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 18,1 % ni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiyligi hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 65,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 35,0 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 102,7%, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 160,3 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati 109,8% darajasidan yuqori ko'rsatkich Xo'jayli (196,7 %), Ellikqal'a (130,8 %), Nukus (129,7 %), Amudaryo (128,1 %), Chimboy (121,5 %), Mo'ynoq (118,1 %) hamda Shumanay (112,2 %), tumanlarida qayd etildi.


Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan past o'sish sur'ati Taxtako'pir (50,6 %), To'rtko'l (85,9 %), Taxiatosh (96,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar



Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib 22,6 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 11,9 % ni, Xo'jayli tumani 11,2 % ni, Amudaryo tumani 8,5 % ni, Ellikqal'a tumani 7,6 % ni, Beruniy tumani 7,5 % ni, To'rtko'l tumani 7,2 % ni va Chimboy tumani 5,2 % ni tashkil etdi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi

1965,5 mlrd. so'm

2021-yil yanvar-sentabr

2259,8 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-sentabr


1964,5 mlrd. so'm

2023-yil yanvar-sentabr



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi yuqori ulushi Nukus shahri 16,9 % ni, Ellikqal'a tumani 15,5 % ni, Amudaryo tumani 12,7 % ni, To'rtko'l tumani 9,7 % ni, Xo'jayli tumani 8,4 % ni hamda Beruniy tumani 6,9 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mldr. so'm

831,8 mldr. so'm

2021-yil yanvar-sentabr

790,0 mldr. so'm

2022-yil yanvar-sentabr

355,2 mldr. so'm



2023-yil yanvar-sentabr

Jami iste'mol
mollari ishlab
chiqarish hajmida
nooziq- ovqat
mahsulotlarining
ulushi




Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi , tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 27,1 %, shuningdek, Taxiatosh tumani 15,8 % ni, Xo'jayli tumani 13,4 % ni, Amudaryo tumani 8,6 % ni, Beruniy tumani 8,6 % ni hamda To'rtko'l tumani 7,6 % ni tashkil etdi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari


Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 47,1 %), Taxiatosh (11,7 %), Qo'ng'irot (7,1 %), To'rtko'l (4,6 %), Beruniy (4,0 %) va Amudaryo (3,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



 o'sish sur'ati
 mlrd. so'm


Aholi jon boshiga toʼgʼri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Taxiatush tumanida (20180,1 ming soʼm) va Nukus shahrida 18516,8 ming soʼm oʼrtacha Respublika darajasi koʼrsatkichidan (6656,3 ming soʼm) ancha yuqoriligini koʼrsatmoqda.




Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 989,5 ming so‘m bo‘lgani holda, Taxiatoш tumanida 3057,0 ming so‘mni, Xo‘jayli tumanida 1715,6 ming so‘mni, Mo‘ynoq tumanida 1364,1 ming so‘mni, Taxtako‘pir tumanida 975,3 ming so‘mni va Chimboy tumanida 888,8 ming so‘mni tashkil etdi




o‘sish sur’ati
ming. so‘m



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan 3570,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 27,0 % ni tashkil etdi.



ulushi, % da

mlrd. so‘m

Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini

Bugungi kunda respublikada 3549 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1977 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 55,7 %), Nukus shahriga 646 tasi (18,2 %), Amudaryo 351 tasi (9,9 %), Ellikqal'a 335 tasi (9,4 %), To'rtko'l 333 tasi (9,4 %), Beruniy 312 tasi (8,8 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda

Jami yangi tashkil etilgan

633 dona

2021-yil yanvar-sentabr

598 dona

2022-yil yanvar-sentabr

1305 dona

2023-yil yanvar-sentabr



Jami faoliyat yuritayotgan

3322 dona


2021-yil 1-oktabr holatiga

3480 dona

2022-yil 1-oktabr holatiga

3549 dona

2023-yil 1-oktabr holatiga



yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 16 ta loyiha bo'yicha 485,9 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 14,7 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 122 ta yangi ish o'rirlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rirlari soni 64,9 % ga oshgan. Shu bilan birga, 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining oshganligi kuzatildi



2022- yil yanvar-sentabr



2023- yil yanvar-sentabr



Loyihalar soni, birlikda

44



Loyihalar soni, birlikda

16



Korxonalar soni, birlikda

26



Korxonalar soni, birlikda

15



Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

488,6



Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

485,9



Yaratilgan yangi ish o'rirlari, birlikda

74



Yaratilgan yangi ish o'rirlari, birlikda

122